

TILSHUNOSLIKDA “O‘ZINIKI – O‘ZGA” KATEGORIYASI TADQIQI

Saydaliyeva Muxlisaxon Baxtiyor qizi,

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),

O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi

<https://orcid.org/0009-0002-2296-8509>

Annotatsiya. Mazkur ilmiy matnda “o‘ziniki – o‘zga” binar oppozitsiyasining inson tafakkuri, til va madaniyat tizimidagi o‘rni keng qamrovda tahlil qilinadi. Ushbu qarama-qarshilikning tarixiy, falsafiy, psixologik va lingvistik asoslarini ochib beriladi hamda uning inson tomonidan borliqni idrok etish va kategoriyalashtirish jarayonidagi ahamiyati asoslandi. Shuningdek, “o‘ziniki – o‘zga” oppozitsiyasining turli fanlar kesishmasida o‘rganilishi, xususan, sotsiolingvistika, pragmalingvistika, kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslik doirasida talqin qilinishi yoritiladi. Tadqiqotda ushbu oppozitsiyaning til birliklari orqali ifodalanishi milliy mentalitetni anglash va insonning o‘zini hamda atrof-muhitni idrok etishiga xizmat qilishi ta’kidlanadi. Bundan tashqari, maqolada oppozitsiyaning jamiyatdagi ijtimoiy guruhlar, madaniy qadriyatlar va kommunikativ munosabatlarni shakllantirishdagi roli ham asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: “o‘ziniki – o‘zga” oppozitsiyasi, binary oppozitsiya, kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, kategoriyalashtirish, milliy mentalitet, ijtimoiy identifikatsiya, kommunikativ, munosabatlar.

Аннотация. В данном научном тексте всесторонне анализируется место бинарной оппозиции «свой – чужой» в системе человеческого мышления, языка и культуры. Раскрываются исторические, философские, психологические и лингвистические основы данной противопоставленности, а также обосновывается её значение в процессе восприятия и категоризации действительности человеком. Кроме того, освещается изучение оппозиции «свой – чужой» на стыке различных наук, в частности в рамках социолингвистики, прагмалингвистики, когнитивной лингвистики и лингвокультурологии. В исследовании подчёркивается, что выражение данной оппозиции посредством языковых единиц способствует пониманию национального менталитета и восприятию человеком самого себя и окружающего мира. Также в статье обосновывается роль данной оппозиции в формировании социальных групп, культурных ценностей и коммуникативных отношений в обществе.

Ключевые слова: оппозиция «свой – чужой», бинарная оппозиция, когнитивная лингвистика, лингвокультурология, категоризация, национальный менталитет, социальная идентификация, коммуникативные отношения.

Abstract. This scholarly text provides a comprehensive analysis of the role of the binary opposition “self – other” in the system of human cognition, language, and culture. The historical, philosophical, psychological, and linguistic foundations of this opposition are explored, and its significance in the process of perceiving and categorizing reality is substantiated. Furthermore, the study examines the interpretation of the “self – other” opposition across various disciplines, particularly within sociolinguistics, pragmalinguistics, cognitive linguistics, and linguocultural studies. The research emphasizes that the expression of this opposition through linguistic units contributes to understanding national mentality and to how individuals perceive themselves and the surrounding world. In addition, the article substantiates the role of this opposition in shaping social groups, cultural values, and communicative relations in society.

Keywords: “self – other” opposition, binary opposition, cognitive linguistics, linguocultural studies, categorization, national mentality, social identification, communicative relations.

Kirish. Atrofimizdagi voqea va hodisalarni tasniflanish, ularni turli kategoriyalarga ajratish orqali borliqni idrok etish kishilik jamiyati yaralganidan to bugunga qadar davom etib kelayotgan muhim mental, ijtimoiy, psixologik amaliyot sanaladi. Shu singari o‘ziga

taalluqlilik yoki begonalashtirish, “do‘st” va “dushman”, “ular” va “biz” singari alomatlar bilan farqlash yoki ajratish bilan bog‘liq jarayonlar hamma davrlarda ham dolzarb bo‘lib kelgan.

Adabiyotlar tahlili. Dunyo tilshunosligida til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar sonining ortishi “o‘ziniki – o‘zga” binar oppozitsiyasining ong kategoriyasi va til tushunchasi sifatidagi ahamiyatini aniqlash imkonini beradi. Ushbu oppozitsiya turli tilshunoslar, xususan, R.Vodak, L.I.Grishayeva, T.A.van Deyk, Y.S.Stepanov, Y.I.Sheygal, R.Fovler, N.D.Arutyunova, A.A.Matveyeva, V.V.Jdanova va boshqalar tomonidan u yoki bu darajada ko‘rib chiqilgan. Ularning asarlarida, eng avvalo, ushbu oppozitsiyaning kelib chiqishi, uning tilda ifodalanish vosita va usullari, madaniy va ijtimoiy hayotda aks etishi singari turli masalalar haqida so‘z boradi.

Fanda “o‘ziniki” va “o‘zga” masalasi turli xarakterdagi talqinlarga ega, shuningdek, fanlar kesishmasida ham tahlil obyektiga aylanadi. Falsafada “o‘ziniki – o‘zga” dixotomiyasini o‘rganish bilish va insonning o‘z-o‘zini identifikatsiya qilish muammolari bilan bog‘liq. Ushbu masala doirasidagi zamonaviy falsafiy tadqiqotlar madaniyatning shakllanishi va taraqqiyoti, jamiyatning ijtimoiy-madaniy begonalashuv, o‘zligini yo‘qotish, total yolg‘izlik hissi singari zamonaviy muammolarini bartaraf etish yo‘llarini izlashga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir, deb keltiradi Y.V.Gordiyenko. Shuningdek, tadqiqotchi “o‘ziniki – o‘zga” oppozitsiyasi ong kategoriyasi sifatida psixologiyaning o‘rganish obyekti bo‘lib, shaxsning psixologik xususiyatlari shakllanishini belgilovchi omil sifatida qaralishini hamda “men” doirasidagi shaxslararo muloqot va munosabatni belgilashini (V.O. Petrovskiy) ham qayd etadi. Bu oppozitsiyaning tahlili sotsiolingvistika (A.Duranti, M.Danezi), pragmalingvistika (O.Parshina, Y.Sheygal), lingvomadaniyatshunoslik (L.Grishayeva, S.Ivanova), kommunikativ tilshunoslik (Y.Kislyakova), etnolingvistika (I.Ovchinnikova), lingvosemiotika (Y.Lotman, A.Olyanich), kognitiv tilshunoslik (T.Aliyeva, I.Vixodseva) singari turli yondashuvlar doirasida ham amalga oshiriladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy va kognitiv-semantik tahlil metodlaridan foydalanildi. “O‘ziniki – o‘zga” oppozitsiyasining til birliklarida ifodalanishi lingvomadaniy va aksiolingvistik yondashuv asosida o‘rganilib, misollar matn, frazeologik va paremiologik materiallar orqali tahlil qilindi. Shuningdek, fanlararo (sotsiolingvistik, pragmalingvistik va kognitiv) yondashuv asosida ushbu kategoriyaning inson tafakkuri va ijtimoiy ongda o‘rni izohlandi.

Tahlillar va natijalar. “O‘ziniki – o‘zga” oppozitsiyasi tafakkurning asosiy binar paradigmlaridan biri sifatida qaraladi. Ushbu qaramaqarshilik inson faoliyatining barcha turlarida qo‘llanadi va turlicha namoyon bo‘ladi: 1) o‘zini atrofdagi dunyoga qaramaqarshi qo‘yish (“Men – Boshqa” / “Men – U” qaramaqarshiligi); 2) o‘z shaxsiyatini boshqa individuallikka (“Men – Sen”); 3) o‘z shaxsiyatini birlamchi ijtimoiy guruhga

(“Men – Biz” / “Men – Siz”) va 4) shaxs a’zosi bo‘lgan guruhni boshqa ijtimoiy guruhga (“Biz – Ular” / “Biz – Siz”) qarama-qarshi qo‘yish.

XXI asrda kognitiv fanlar diqqat markazida tafakkurning tabiati, kategoriyalashtirishning mohiyati va uning tafakkur bilan aloqasi, bilim turlari va ularni lisoniy ifodalash usullari kabi masalalar turadi. “O‘ziniki” va o‘zga” oppozitsiyasining reprezentatsiyasi obyektiv borliqni “o‘ziniki” va “begona”ga ajratish, shuningdek, “o‘zini” “begona”ga qarama-qarshi qo‘yish imkonini beruvchi kategoriyalashtirishda ifodalanadi. Rus tilshunosi Y.Y.Arekeyevaning maqolasida keltirilishicha, “bilvosita nominatsiya orqali verballashtirilayotgan dunyo fragmentini kategoriyalashtirish nomlanayotgan obyektning belgilarini tegishli kategoriyaning fokusi bo‘lgan prototip bilan taqqoslash orqali amalga oshiriladi”. “O‘ziniki – o‘zganiki” oppozitsiyasini ifodalovchi til birliklarini tahlil qilish millat mentalitetini anglashga, kognitiv faoliyat jarayonida insonning o‘zini va dunyoni idrok etishiga yordam beradi.

Dastlab “o‘ziniki” va “o‘zga” tushunchalari inson yashaydigan muhit bilan bir butunlikni tashkil etgan. Biroq hayotiy makonni toifalashtirish, shaxs tafakkurining rivojlanishi natijasida dunyoning binar modeli murakkablashadi va insonning jamiyat bilan ko‘p darajali aloqalariga qadar kengayib boradi: qarindoshlik, til, kasbiy, qabila, etnik va hokao. Zamonaviy madaniy muloqotda “o‘ziniki” kategoriyasi subyektning “o‘ziniki” sifatida tushuniladigan ma’lum bir ijtimoiy guruhga o‘zini bog‘lashi va subyekt tomonidan “begonalar” sifatida belgilanadigan umumiylikdan o‘zini ajratishi sifatida ifodalanadi.

“O‘ziniki – o‘zga” qaramaqarshiligi madaniyatni butunlay qamrab oladi, chunki olamni idrok etishning asosida borliqdagi har bir hodisadan “o‘ziniki”ni topish va “o‘zga”ni ajratish, farqlash operatsiyalari yotadi. Bu oppozitsiya ko‘plab ijtimoiy sohalar, jumladan, falsafa, sotsiologiya, psixologiya, tilshunoslik va boshqa fan sohalar uchun universal tushuncha bo‘lib, ma’lum bir lingvomadaniy hamjamiyatda qabul qilingan me’yorlar va qadriyatlar haqida fikr yuritish imkonini beruvchi asosiy mo‘ljal hisoblanadi. Obyektni “o‘ziniki” deb hisoblash uning xususiyatlari va qadriyatlarini ushbu jamoada keng tarqalganlari bilan taqqoslashni nazarda tutadi. Oppozitsiya dunyoning milliy manzarasiga kiruvchi eng qadimiy madaniy, lingvistik konstantalardan biridir. U barcha hodisalarni tanish yoki notanish, qadrdon, yaqin, do‘st yoki o‘rganilmagan, uzoq, dushmanlarga ajratish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. “O‘ziniki – o‘zga” ijtimoiy idrok doirasi madaniy hamjamiyatning barcha vakillarida mavjud. O‘ziniki va begonalarni aniq qarama-qarshi qo‘yish turli xalqlarda paydo bo‘lgan va tildagi farqlar, e’tiqodlar, turmush tarzi va axloqiy me’yorlar bilan mustahkamlangan. “O‘ziniki – o‘zga” oppozitsiyasi, avvalo, inson ongi kategoriyalarini belgilovchi universal binar oppozitsiya sifatida qaraladi. Bunday tushunchalar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, odamlar atrofdagi voqelikni idrok etadigan o‘ziga xos dunyo modelini hosil qiladi. Ushbu oppozitsion tushunchalarning tasnifi T.V.Sivyan ishida quyidagicha keltiriladi: makon tuzilishidagi binar oppozitsiyalar

(yuqoriga/pastga, osmon/yer, sharq/g'arb va boshqalar); vaqt tuzilishidagi (kun/tun, yoz/qish va boshqalar); rang bilan (oq/qora, qizil/qora, yashil/qizil, pushti/moviy va boshqalar); tabiiy/madaniy oppozitsiyasi bilan (ho'l/quruq, yovvoyi/xonaki va boshqalar); ijtimoiy toifalar bilan (erkak/ayol, katta/kichik, o'z/begona, ichki/tashqi va boshqalar). Ushbu ikki qutblilik belgi to'plamlari asosida universal belgilar majmualari tuziladi hamda ular yordamida olam o'zlashtiriladi.

Ushbu binar oppozitsiyaning qadriyatlar tizimidagi o'rni borasida tadqiqotlar olib borgan rus tilshunosi A.A.Matveyevaga ko'ra, "O'ziniki – o'zga" kategoriyasini amalga oshirishda ishtirok etadigan baholash ikki xil ko'rinishda bo'lishi mumkin: *yuzaki* (zamonaviy umuminsoniy madaniy me'yorlarga asoslangan) – bu "o'ziniki"da salbiy xususiyatlar va "o'zga"da ijobiy xususiyatlar mavjudligiga yo'l qo'yadi hamda *chuqur* (bazaviy arxetipga ko'tarilgan) – bunda "o'ziniki" har doim yaxshi, begona, ya'ni "o'zga" esa yomon". Shuningdek, olim chuqur baholash "o'ziniki – o'zga" kategoriyasini ifodalashda ustuvor ekanligini ta'kidlaydi. A.A.Matveyeva kontekstual tahlillarga tayanib, "o'ziniki"ning salbiy xususiyatlari kompensatsiyaga, "begona"ning ijobiy xususiyatlari esa devalvatsiyaga uchraydi, deb hisoblaydi: "So'zlovchi tomonidan "begona"ning muayyan ijobiy xususiyatlari va "o'ziniki"ning salbiy xususiyatlariga yo'l qo'yilishi (yuzaki baho) obyektivlik ko'rinishini yaratishga imkon beradi, kompensator-devalvatsion mexanizmlarning ishga tushirilishi (chuqur baho) esa tinglovchi ongida "o'ziniki" baribir yaxshi, "begona" baribir yomon" aksiologik xulosasini yaratishga imkon beradi".

Umuman olganda, "o'ziniki – o'zga" oppozitsiyasi inson tafakkurining, idrokining eng asosiy ikki qutbli paradigmalardan bo'lib, u inson hayoti, faoliyati, madaniyati, qadriyatlarining har bir jabhasida ishtirok etadi va namoyon bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida kishilarga, avvalo, o'zini boshqa insonlar va butun borliq bilan qarama-qarshi qo'yish, ikkilamchi, o'ziga taalluqli bo'lgan hodisalarni shu qaramaqarshiliklar orqali ajratib olishga imkon beradi.

Tilshunoslikda "o'ziniki – o'zga" oppozitsiyasi shaxsning yoki guruhning jamiyatdagi o'rnini aniqlashga xizmat qiluvchi kognitiv va lingvomadaniy kategoriya sifatida talqin qilinadi. Mazkur kategoriya orqali inson o'z guruhini aniqlaydi, boshqa guruhlardan farqlanadi, ijtimoiy-madaniy chegara o'rnatadi, identitetini mustahkamlaydi. O'zbek mentalitetida "o'ziniki" tushunchasi yaqinlik, ishonch, birgalik, himoya kabi qadriyatlarni anglatadi. "O'zga" esa begonalik, ehtiyotkorlik, noma'lumlik, ba'zan ishonchsizlik ma'nolari bilan bog'langan. "Biz – ular" qarama-qarshiligiga o'xshash bu oppozitsiya jamiyatning madaniy me'yorlari, ijtimoiy munosabatlari va jamoaviy ongida muhim o'rin tutadi.

O'zbek xalq ijodi namunalarini kuzatar ekanmiz, xalq dostonlari va ertaklarida "o'zga" ko'pincha xavf va sinovlar manbayi sifatida beriladi, "o'ziniki" esa himoya, homiy va qo'llab-quvvatlovchi kuchdir. Masalan, har qanday epik qahramon yurtidan uzoqqa ketgan qahramon doimo "o'zga el"da sinovlardan o'tadi, yo'qchilik bilan sinaladi,

aldanadi, chuv tushadi, mol-mulki va erkidan ayriladi, yaqinlari, ya'ni o'zinikilarni yo'qotadi. Qahramonlarning boshiga sinov kelgan damlarda albatta unga homiylik qiluvchi mo'ysafid yoki sodiq do'st, jonzot yordam beradi. Bosh qahramonning sinovlarda sinmasligiga ko'makchilik qilgan bu qahramon va homiylar u bilan doimiy yaqin va mustahkam ishonch asosida munosabatda qoladi.

O'zbek tilida "o'ziniki" semantik yadrosi *bizning odam, o'zimizniki, hamqishloq, hamkasb, hamyurt, qarindosh, yaqin, o'zimizdan* singari birliklar orqali ifodalanadi. Bu birliklar ijtimoiy identiklikni mustahkamlovchi aksiologik yuk – ijobiy bahoga egaligi bilan xarakterlanadi.

"Begona" semantik yadrosi *begona, g'ayri, chet elniki, bizdan emas, masofa saqlaydigan, notanish, dushman, bosqinchi, odamovi* singari birliklar asosida birlashadi hamda ular hushyorlik, ehtiyot, begonalashtirish, illatlarga egalik salbiy bahoga yaqin neytrallikni bildiradi.

Ushbu oppozitsiya xalqning qadriyatlari, mental tasavvurlari, ijtimoiy-axloqiy me'yorlari va milliy identiteti bilan bog'liq holda o'rganiladi. Til birliklarida "o'ziniki" (yaqinlik, tegishlilik, homiylik, do'stlik) hamda "o'zga" (begonalik, ehtiyotkorlik, xavf, masofa) semalari qanday aks etishi misollar orqali ko'rsatib beriladi.

Tilning aksiologik funksiyasi so'zlovchining dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy tajribasini aks ettirishda muhim o'rin tutadi. Aksiolingvistika til birliklarida qo'llanuvchi baho, qadriyat, ijtimoiy-psixologik munosabatlarni tadqiq etadi. Bu jarayonda binar oppozitsiyalar muhim vosita bo'lib, ular jamiyatning konseptual tafakkuri va ma'naviy me'yorlarini ko'rsatib beradi.

O'zbek mentalitetining asosiy semantik o'qi bo'lgan "biz – ular", "o'ziniki – o'zga" oppozitsiyasi xalq og'zaki ijodi, iboralar, maqollar, frazeologik birliklar va nutq stereotiplarida yaqindan namoyon bo'ladi. Ushbu faslda ana shu oppozitsiyaning mazmuni, semantik modellari va aks ettirilgan qadriyatlar tahlil qilinadi.

Biz tahlil qilayotgan "O'ziniki – o'zga" binar oppozitsiyasi o'zbek lingvomadaniy hamjamiyatining jamoaviy ongi mohiyatini, qarindosh-urug'chilik, qo'ni-qo'shnicilik institutlarining til egalari hayot va tafakkur tarzi haqida yetarlicha axborot beradi. O'zbek tilining frazeologik va paremiologik qatlamida kuchli aksiologik indikator sifatida faol ishlatiladi. U xalqning tarixiy tajribasi, ijtimoiy munosabatlari, kollektiv identiteti va madaniy qadriyatlarini aks ettiradi. Iboralar tarkibidagi baholovchi semalar milliy dunyoqarashning asosiy kategoriyalaridan biri – "yaqin – begona" dialektikasini ifodalaydi. Shu bois ushbu oppozitsiya o'zbek tilining aksiolingvistik tizimida markaziy o'rinlardan birini egallaydi.

XXI asrda tafakkurning tabiati, kategoriyalashtirishning mohiyati va uning tafakkur bilan bog'liqligi, bilim turlari va ularni lisoniy ifodalash usullari masalalari kognitiv fanlar diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Kognitiv psixologiyaning asoschisi J.Brunerning ta'kidlashicha, "agar biz biror predmet haqida uning ushbu to'plamning kichik to'plamiga

tegishliligini ko'rsatishdan ko'ra mazmunliroq narsani aytmoqchi bo'lsak, uni toifalashtirish kerak... Agar biron-bir idrok kategoriyalar tizimiga kiritilmagan, ya'ni biron-bir kategoriyaga kiritilmagan bo'lsa, u individual tajriba sukunatiga ko'milgan, qo'l yetmas gavhar, qaynoq qush bo'lib qolishga mahkum etilgan bo'lar edi". "O'ziniki" va "o'zga" oppozitsiyasining reprezentatsiyasi obyektiv voqelikni "o'ziniki" va "begona"ga ajratish, shuningdek, "o'zini" "begona"ga qarama-qarshi qo'yish imkonini beruvchi kategoriyalashtirishda ifodalanadi. N.F.Alefirenkoning so'zlariga ko'ra, "bilvosita nominatsiya vositasida verballashtirilayotgan olam qismini kategoriyalashtirish nomlanayotgan obyektning belgilarini tegishli kategoriyaning fokusi bo'lgan prototip bilan taqqoslash yordamida amalga oshiriladi. "O'zinniki" oppozitsiyasini ifodalovchi til birliklarini tahlil qilish millat mentalitetini anglashga, kognitiv faoliyat jarayonida insonning o'zini va dunyoni idrok etishiga yordam beradi.

Dastavval "o'ziniki" va "begona" tushunchalari inson yashaydigan muhitning bir butunligini tashkil etgan. Biroq, hayotiy makonni toifalashtirish, shaxs tafakkurining rivojlanishi natijasida dunyoning binar modeli murakkablashadi va insonning jamiyat bilan ko'p darajali aloqalarigacha o'sib boradi: qarindoshlik, til, kasbiy, etnik va boshqalar. Zamonaviy madaniy muloqotda "o'ziniki" kategoriyasi subyektning "o'ziniki" sifatida tushuniladigan ma'lum bir ijtimoiy guruhga o'zini bog'lashi va subyekt tomonidan "o'zga" sifatida belgilanadigan umumiylikdan o'zini ajratish sifatida ifodalanadi.

"O'ziniki – o'zga" oppozitsiyasi, eng avvalo, inson ongi kategoriyalarini belgilovchi universal oppozitsiya sifatida qaraladi. Bunday tushunchalar bir-biri bilan bog'liq bo'lib, odamlar atrofdagi voqelikni idrok etadigan o'ziga xos olamning modelini hosil qilish bilan kichadi.

Ushbu tushunchalarning tasnifi T.V.Sivyan tadqiqotida quyidagi ko'rinishda taqdim etiladi: *makon* tuzilishi bilan bog'liq binar oppozitsiyalar (yuqoriga / pastga, osmon / yer, sharq / g'arb va boshqalar); *tabiat / madaniyat* oppozitsiyasi bilan (ho'l / quruq, nam / qaynatilgan va boshqalar); *ijtimoiy toifalar* bilan (erkak / ayol, katta / kichik, o'z / begona, ichki / tashqi va boshqalar) *vaqt* tuzilishi bilan (kun / tun, yoz / qish va boshqalar); *rang* bilan (oq / qora, qizil / qora va boshqalar). Ushbu ikkilik belgilar to'plamlari asosida universal belgilar majmualari tuziladi, ular yordamida dunyo o'zlashtiriladi. Shunga ko'ra, "o'ziniki" qaramaqarshiligi universal binar qaramaqarshilik bo'lib, etnosning qadriyat yo'nalishlari va insoniyatning ko'p asrlik tajribasini ifodalaydi.

Binar oppozitsiyalar konsept, mifologema, kategoriya kabi shakllarda bo'lishi mumkin. Rus tilshunoslari Y.S.Stepanov, I.S.Vixodsevalar oppozitsiyani konsept sifatida ko'rib chiqadilar. Y.S.Stepanovga ergashib, konsept deganda "inson ongidagi madaniyat to'plami; madaniyat insonning aqliy dunyosiga kiradigan narsa" hamda "insonning o'zi madaniyatga kiradigan, ba'zi hollarda unga ta'sir qiladigan narsa"ni tushunamiz.

"O'ziniki – o'zga" konsepti yakka konseptlardan semantik juftlikning mavjudligi bilan ajralib turadi, ushbu juftlik tarkibiy qismlari o'rtasidagi yaqin aloqa va shu bilan

birga ularning semantik farqi millat va uning alohida vakillarining lisoniy ongining xususiyatlarini aks ettiradi. Kishilarning “o‘zinikilar” va “begonalar” yo‘nalishi bo‘yicha haqiqiy, obyektiv mavjud farqi haqida emas, balki bu farq ularning ongida paydo bo‘ladigan afsonaviy, ba‘zan esa shunchaki xayoliy shakllar haqida ham to‘xtalish lozim. Bunda “O‘zinikilar” “Begonalar” tushunchalari ostida nafaqat qaramaqarshilikning o‘zi va u bilan bog‘liq obyektiv ma‘lumotlar, balki ongdagi subyektiv munosabat aks etish orqali ham yaratiladi.

“O‘ziniki – o‘zga” binar oppozitsiyasi M.Seregina, Y.Xlishcheva, G.Neverovich kabi tadqiqotchilarning ishlarida mifologema sifatida ham talqin etiladi. Mifologema mifologik tafakkurning mustaqil birligi, madaniyatli inson uchun yaxlitlikka ega bo‘lgan, muayyan xususiyatlarning barqaror majmuini o‘z ichiga olgan obraz sifatida qaraladi. Y.V.Xlishcheva madaniyatni o‘rganish kontekstida “o‘ziniki – o‘zga” oppozitsiyasiga murojaat qilib, mifologemani aniqlash mexanizmini iste‘mol jamiyati mafkurasi bilan bog‘laydi. Tadqiqotchining ta‘kidlashicha, mifologemalar, ayniqsa, madaniyatlararo muloqotda yaqqol namoyon bo‘lib, muloqotning barcha darajalariga ta‘sir ko‘rsatadi: kasbiy muloqotdan tortib oddiy muloqotgacha. Bunday o‘zaro ta‘sirning asosida “o‘zinikilar” va “o‘zgalar”, ya‘ni begonalarni aniq farqlash yotadi, bu esa kuchli migratsiya oqimlari madaniyatlarni o‘zaro to‘qnashtiradigan o‘zgaruvchan ijtimoiy-madaniy sharoitlarga mos kelmaydi. Shaxsning ongiga ta‘sir qilib, aynan mif xulq-atvorning ma‘lum modellarini belgilaydi, farqlashning barqaror stereotiplarini yaratadi. Y.V.Xlishchevaning fikriga ko‘ra, “o‘zinikilar” iste‘mol belgilarining muayyan tizimidan foydalanadilar, ular individning xohishidan qat‘i nazar, uning muayyan qatlamga mansubligini farqlashadi. Shu bilan birga ma‘lum bir qatlamda ijtimoiylashuvdan o‘tgan odamlar begona maydonda bo‘lishdan noqulaylik his qiladilar.

M.N.Petrochenko “O‘ziniki – o‘zga” oppozitsiyasi “men” – ya‘ni subyekt o‘z tasavvuriga tayanib, o‘ziga nisbatan “o‘ziniki” sohasini hamda “o‘ziniki”ga nisbatan “o‘zga”, ya‘ni begona sohani tanishga qodir bo‘lgan voqelikning boshqa har qanday obyektida aks etishi orqali olamni anglash jarayoni sifatida talqin etadi. Tadqiqotchiga ko‘ra, oidlik/xoslik va begonalik semantikasi doimiy ravishda subyektning shaxsiy doirasiga kiradigan yoki undan doimiy ravishda chiqarib tashlanadigan voqelikning ma‘lum obyektlariga birlashtirilganligi bilan tavsiflanadi. Shuningdek, tadqiqotchi ushbu oppozitsiyaning yuaga kelishida uchta muhim unsur mavjudligini qayd etadi, bular: *kategoriyalovchi subyekt* – ya‘ni o‘ziniki va begonani ajratuvchi (asosan, “men”); *oppozitsiya subyekt* – bu matn elementi bo‘lib, unga nisbatan “o‘ziniki” yoki “o‘zga” olam sohasi, “o‘ziniki” yoki “begona” obyektlar quriladi hamda *oppozitsiya obyekt* – “o‘ziniki” yoki “o‘zga” komponenti atribut bo‘lgan real voqelik obyektini nomlovchi matn birligi. Olima, lirik qo‘shiqlarda asosan, “men” uchinchi shaxs tilidan gapirishi orqali subyektivlik xususiyatini yo‘qotishi, bu bilan kategoriyalovchi vazifasi kuchsizlanishini; maqol yoki ertaklarda esa bu xususiyat kuchli ifodalanishini qayd etadi.

Rus tadqiqotchisi Y.V.Gardiyenko "...mediadiskursda ziddiyatni tavsiflashning muhim sharti asosiy konfliktogenlardan biri "o'ziniki – o'zga" lingvomadaniy oppozitsiyasini amalga oshirishdir. O'rganilayotgan oppozitsiyaning baholash asosi aksariyat hollarda "o'ziniki" harakatlari "to'g'ri" / "o'zga"niki, boshqacha qilib aytganda, "begona"ning harakatlari esa "noto'g'ri" sifatida ifodalanishi bilan belgilanadi, bu esa "o'ziniki – o'zga" oppozitsiyasini "yaxshi" / "yomon" dixotomiyasining konseptual amalga oshirilishi – baholash kategoriyasining asosi sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi", deb ta'kidlaydi. Tadqiqotchi "o'ziniki – o'zga" lingvomadaniy oppozitsiyasi mediadiskursda asosiy konfliktogen hisoblanishini ta'kidlab, ushbu oppozitsiyaning aksiologik ahamiyati "o'zinikilar"ning harakatlari do'stona, to'g'ri va tinchlikka qaratilgani; ularning opponentlari – "o'zgalar"ning harakatlari esa yomon, noto'g'ri va dushmanlik bilan bog'lanishini ta'kidlaydi. Tadqiqotchiga ko'ra, ingliz mediadiskursida "o'ziniki – o'zga" oppozitsiyasida baholash so'zlovchining kommunikativ niyatini yetkazish va mediamatnning pragmatik funksiyasini amalga oshirishning samarali usuli hisoblanadi.

Xulosa. Ingliz tilidagi nizoga yo'naltirilgan mediadiskursning kommunikativ tashkil etilishini belgilovchi baholash strategiyalari va taktikalarini inventarizatsiya qilish shuni ko'rsatdiki, qaramaqarshilik, tanbeh berish, manipulyatsiya qilish, fikrlar xilma-xilligini yetkazish, ma'qullash kabi baholash strategiyalari eng reprezentativ bo'lib, ular, o'z navbatida, hukm chiqarish, tahdid qilish, muammoning mavjudligini tan olish, ayblash, manipulyatsiya qilish, taniqli shaxslar va toponimlardan foydalanish, diqqatni jamlash, mantiqiy dalillash, fikrlarni qiyosiy tahlil qilish, o'quvchilar bilan muloqot qilish, minnatdorchilik bildirish va e'tirof etish, muammoni hal qilish yo'lini ko'rsatish, muvaffaqiyatga ishora qilish kabi taktikalar orqali amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Арекеева Ю.Е. Особенности фразеологической категоризации оппозиции «свой – чужой» в китайской лингвокультуре. – С. 183. // <https://journals.udsu.ru/multilingualism/article/view/8505/7279>
2. Гордиенко Е.В. Средства выражения оценки в оппозиции «свой–чужой» в англоязычном медиадискурсе: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Тверь, 2022. – 24 с.
3. Зырянов М.С., Кашпур В.В., Андреева Т.Л. «Свой»: Анализ языковой репрезентации и моделирование категории (на материале существительных, функционирующих в текстах российских и американских СМИ о вооруженном конфликте в Сирии) // Теоретическая и прикладная лингвистика. 2021. Вып. 7, No 1. С. 46–62.
4. Матвеева А.А. Взаимодействие категории «свой–чужой» и категории оценки // Вестник Башкирского университета. – Уфа, 2007. – №3. – С.74.
5. Петроченко М.Н. Семантический компонент «свой/чужой» в фольклорном и диалектном бытовом текстах: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Томск, 2005. – С. 7.
6. Цывян Т.В. Лингвистические основы балканской модели мира / Институт славяноведения и балканистики. – М.: Наука, 1990. – С. 5-6.